



## O'QUVCHILARNI DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHDA HIKOYALARNING O'ZARO QIYOSLASH METODINING O'RNI

Olimboyeva Malohat Quдрat qizi

Urganch davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7990709>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2023

Online: 31<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Hikoyalar tahlili, dunyoqarash, taqqoslilik nazariyasi, ifodali o'qish, epigraf, tasvir va psixologiya, voqealar rivoji.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda hikoyalar tahlili va hikoyalarni taqqoslar o'rganishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Bugungi kunda maktab ta'limida bilim olayotgan o'quvchi-yoshlarning kreativ jihatdan hayotga ko'z qarashlarini oshirish va ularda dunyoqarashni kengaytirish borasida hikoyalarning o'rne katta ekanligini anglash mumkin. Hikoyalarni tahlil qilish ularning qiyoslash metodi orqali qanday ma'no anglashilayotganligini bilish, tadqiq etish ham muhimdir.*

O'quvchilarga estetik zavq va bilim tafakkurni hikoyalar vositasida berishda tarbiyaning turli shakllari yaxshilik va yomonlik, do'stlik, vatanga bo'lgan muhabbat, mehnatning ulug'lanishi kabi tamoyillariga amal qilgan holatda o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish borasida hikoyalarda tashilayotgan anglashilayotgan ma'no mazmunlarini tub mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berish lozim. Muayyan tahlilning turli vaziyatlarga muvofiq tarzda amalga oshirilishi ushbu tasvirda vositalardan foydalanishga rol o'ynaydi.

Hikoyalarning birinchisi ikkinchisiga, ikkinchisining keyingisiga tarzda taqqoslanishi o'quvchilarning hikoyachilikka qiziqishi va hikoyalarda tasviriy ifodalarning psixologik jihatdan amalga oshirilishi va o'zlari uchun kerak bo'lgan bilim va natijalarini egallashi bilan xarakterlanadi. Muayyan tahlilning xulosaviylik va taqqoslilik jarayonlarida shuni anglash lozimki, o'quvchi yoshlarning shaxs doirasiga ko'ra, ular o'zlashtirish darajasiga ko'ra, anglashilayotgan bilim va tushunchalarni egallab boradilar. Bunda, asosan, tahlilda bilishning turli mantiqiy usullarini amalga oshirish hodisasi jarayonlarida faol qatnashish, tahlilni vaziyatga to'g'ri munosabat bildira olish ham o'quvchilardan yuksak mas'uliyat talab qildi. Dunyoqarash kishilik jamiyatda yuz berayotgan voqea hodisalarga nisbatan munosabat bilan belgilanadi. "Hikoyalar biror bir davr bilan bog'liq holda bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning turli oq va qora tomonlari xususida muayyan tushunchalarga ega bo'ladi. Ularda yaxshilikka nisbatan muhabbat, yomonliklarga nisbatan nafrat tuyg'usi shakllanadi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqazo etadi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muommoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi kerak." [1]



Hikoyani tahlil qilishda ahamiyat qaratish lozim bo'lgan turli xil ijtimoiy jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Ushbu holatlarda zamon va makon munosabatlari, qahramonlar va ularning ijobiy salbiy bo'yoqdorlikka ega ekanligi murakkab va psixologik bizlarning hikoya qatnashishi o'zni ularda anglashilayotgan ma'no va mazmunning teran ochib berilishi ham qiyoslash metodiga aloqadordir. Dunyoqarashni shakllantirishda turli xil ijtimoiy metodlardan ham foydalanish lozim. Asarning yaratilishdagi turtki asarning eng kuchli tomonlari va imkoniyatlar, to'siqlarni ochib berish va rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda faollik darajasiga ko'ra ham baholanadi. Shuningdek, hikoyalar yuzasidan takrorlash, mustahkamlash darslarning amalga oshirilishi mantiqiy ijtimoiy estetik tafakkurini oshirish yuzasidan turli xil yozma va ochiq testlar tashkil etilishi shular jumlasidandir.

Turli xil samaradorlikka erishish borasida hikoyalarning o'zaro bir-biriga qiyoslash chog'ishtiruv usullaridan foydalanish lozim. Misol uchun: Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi, Gafur Gulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalari. Yuqorida nomlari keltirilgan har ikki hikoyada ham voqealar rivoji qahramonlar munosabati o'rtasida zamon va makonga aloqadorlikda yuz beradi. Haqiqatdan ham, hikoya qahramonlarning ijtimoiy muhit ta'sirida amalga oshirgan vazifalari va ularning kelgusida kutib turgan noxush vaziyatlar adabiy-badiiy jihatdan tartibga solingan va me'yorlashtirilgan qoliplar asosida amalga oshiriladi. Hikoya juda ham kichik yo'nalish va voqea-hodisalarni qamrab olishini birgalikda unda asar va qahramonlar ham nisbatan kam bo'lib, tor doira ichidagina voqealar rivoji, hodisalar kuzatiladi. O'z fikrini rivojlantirishda va imkoniyat yaratib berishda hikoyachilikning ijtimoiy ta'siri va qayta hikoya qilib berish darslari borasida amalga oshirilayotgan mana shunday islohotlar, bilim saviyalarining oshib borilishi, izohli tartibda berilishi va ijtimoiy muhitning naqadar ahamiyatli ta'sir doirasida ekanligi ham kishilarni quvonchiga tortadi. "Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda, ularga bilim berishda dunyo tan olgan ilmiy-innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat".[2]

Birgina hikoya va emas bir necha hikoyalar bilan tanishish va ularga turli xil ma'lumotlar berishda bozori bir-birlarini taqqoslashlari natijasida amalda qo'llash lozim bo'lgan usulda metodlardan foydalanish katta samaradorlikni tashkil etadi, deyish mumkin. Maktab o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda turli xil qahramonlar va ularning ortidan anglashilayotgan munosabatlarda yuklatilgan xarakteri xususiyat, davr va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy munosabatning ochib berilar ham ifodalaniadi. Qahramonlarning psixologik holatlari, zamon makonida o'zlarining tutishi va hatti-harakatlari bilan belgilanadigan qiyoslash-chog'ishtiruv metodining o'zni ham katta bo'lib, hikoyalarni o'zaro bir birlariga bog'lash va qiyoslash borasida teran tahlilning yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri sanaladi. "Mening og'rigina bolam" hikoyasida voqealar qahramoni bo'lgan bolakayning sarguzasht izlab dunyoni kezib yurishi va ko'rgan-kechirganlarining qalamga olish natijasida amalga oshiriladi. "O'quv tahlilning bu usuli muammoli tahlil deyiladi. Barchamizga ma'lumki,



adabiyot uch tur: lirik, epik va dramatik asarlar kabi turlarni o'z ichiga oladi. Har bir adabiy tur esa xilma-xil janrdagi badiiy asarlar qamrovidan iborat. Epik asarlar turkumiga hikoya, qissa, roman, ocherk, afsona, rivoyat, mif kabi asarlar kiradi. Ushbu bobda biz epik turga mansub bo'lgan asarlardan hikoya, qissa va roman kabi turlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu janrga mansub bo'lgan asarlarni tahlil qilish bo'yicha bir qator tavsiyalarimizni bermoqchimiz. Eng avvalo, hikoya janriga oid bo'lgan asarlarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalmoqchimiz".[3]

"O'g'ri" hikoyasida esa Abdulla Qahhorning badiiy, poetik mahorati namoyon bo'lgan bo'lib, qisqaliklik va lo'ndalikka foydalangan holda o'z fikrining teran va badiiy tarzda ifodalanishi va yakuniy xulosalarning paydo bo'lishiha erishiladi. "O'g'ri" hikoyasida zamonda boshchilik qilib turgan kishilarning haqiqiy o'g'irligi tanqid ostiga olinib, kulguning bo'rttirilgan shaklida holatlar rivojlana boshlaydi. "Mening og'rigina bolam" hikoyasi esa kishilik jamiyatimizda ijtimoiy tub aholining qatlamiga yaqin harqanday muhitda yashovchi kishilar bilan shug'ullanish, ularga yordam berish masalasida xalq hokimiyati va boylarni ijtimoiy qatlam vakillariga yordam berishga chaqirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu ham tasviriy vositaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'tgan davr hayotining chin ma'noda yoki tasviriy ifodada bo'lsada hayotiy ko'rsatgichlarini tasvirlashga yordam beradi.

### References:

1. Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi. Umumiy o'rta ta'limda hikoya o'qitish metodikasi. Scientific progress - 2021
2. Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi. Said Ahmad hikoyalarini o'rganishda interaktiv metodlar. "Science and education" scientific journal – 2021
3. Saidmurodova Sevinch Xasan qizi Hikoya janriga oid bo'lgan asarlar tahlilini amalga oshirish usullari (G'G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi misolida) "Science and Education" Scientific Journal - 2022